



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 25-noyabr, shanba,
140 (23.859)-son

**KUN
HIKMATI**

Ota-onaning
farzandlari,
rahbarning esa
xodimlar oldida
ishonchni
yo'qotishi - fojia

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident qaroriga ko'ra

Prezidentimizning 2023-yil 15-noyabrda qabul qilingan "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori respublikada tadbirkorlik subyektlarini o'qitish orqali ularning biznes tashabbuslarini moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Qarorda "oilaviy tadbirkor - mikrobiznes - kichik biznes - o'rta biznes" zanjiri asosida ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga belgilangan.

300 TA LOYIHA tadbirkorlarga sotiladi

Bunda:
- davlat dasturlari doirasida kichik va o'rta biznes loyihalarini "Biznesni rivojlantirish banki" ATB, "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ va boshqa hamkor tijorat banklaridan iborat yaxlit moliyaviy tizim asosida qo'llab-quvvatlash;
- tadbirkorlikka o'qitish, kichik va o'rta biznes loyihalarini moliyalashtirish hamda biznes jarayonlarining barcha bosqichlarida doimiy hamrohlik qilish nazarda tutilgan.

2024-2026-yillarda "Biznesni rivojlantirish banki"ga kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jami 800 million AQSH dollarigacha miqdorda resurslar jalb qilinadi. 300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiya (evrobond)lar xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqariladi, 150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyati yo'lga qo'yiladi va kengaytiriladi.

"Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmini 8 trillion so'mdan 14 trillion so'mga yetkaziladi. 150 ta o'rta biznes korxonasi ulush kiritish va xizmatlar ipotekasi asosida 300 ta loyiha tadbirkorlik subyektlariga sotiladi. Bu bilan o'rta tadbirkorlik subyektlari soni 2,5 baravarga oshiriladi.

Qarorga ko'ra, aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilish bo'yicha respublika komissiyasi va uning hududiy komissiyalari tashkil etiladi. Eng asosiysi, hududlar va davlat dasturlari yo'nalishlari kesimida 2024-yilda 2 million aholini biznesga jalb qilish rejalashtirilmoqda. Bu borada respublika komissiyasi o'zlari biriktirilgan hududda har bir tuman va shaharda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun o'quv seminarlarini o'tkazadi. "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida loyihalarni moliyalashtirish uchun "Biznesni rivojlantirish banki" ATBga jami 300 million dollar miqdorida mablag' ajratiladi.

Kelgusida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga "Yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish uchun "Kichik biznesga ko'maklashish marka-

zi" MCHJlar va "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning vakillari Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari binolariga joylashtiriladi. Savdo-sanoat palatasi, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil, mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi xodimlari aholi va tadbirkorlar o'rtasida davlat dasturlarida kichik va o'rta biznes uchun belgilangan moliyaviy imkoniyatlar to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi. Shuningdek, salohiyatli tadbirkorlar aniqlab, "Kichik biznesga ko'maklashish markazi" MCHJlarga va "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning vakillariga ularning loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlardan samarali foydalanish, ularning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash maqsadida 2024-yil 1-iyuldan kredit ajratishning barcha bosqichlari raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshiriladi. Kredit ta'minotlarini nazorat qilish, garovga olingan mulklarni ta'qiddan to'liq yoki qisman chiqarish hamda almashtirish jarayonlari elektron platformalar orqali markazlashgan holda tashkil qilinadi. Axborot texnologiyalari yordamida mijozlar biznes-rejalar asosida faoliyat yuritishi, pul oqimlari va boshqa ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali xatarlarni oldindan aniqlash mexanizmi amaliyotga kiritiladi. Davlat dasturlari doirasida tuman (shahar) va mahallalarga ajratiladigan kreditlar hajmi yuzaga kelgan muammoli kreditlar ulushidan kelib chiqib belgilanadi.

2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlariga o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni (mahsulotlarni) davlat buyurtmachilariga bir moliya yili davomida jami 10 milliard so'mgacha qiymatda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat berilgan.

E.RO'ZIYEV,
Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.

AFRUZA JAHONDA TENGSIZ

Italiyada o'tkazilayotgan shaxmat bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida samarqandlik 14 yoshli Afruza Hamdamova chempion bo'ldi. Bungacha hali o'zbekistonlik biror xotin-qiz bunday nufuzli musobaqada oltin medalni qo'lga kiritmagan edi.



Afruza Hamdamova 2009-yilda Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida tug'ilgan. To'rt yoshidan shaxmat bilan shug'ullanib keladi. Hozirgi vaqtda Samarqand shahridagi 42-maktabning 8-sinf o'quvchisi. WFM - Xotin-qizlar o'rtasida FIDE sport ustasi.

Afruza shaxmat bo'yicha xotin-qizlar o'rtasidagi (maktab o'quvchilari o'rtasida) shaxmatning asosiy - standart yo'nalishi bo'yicha ilk va hozircha yagona jahon chempioni edi. Endi bolalar va o'smirlar o'rtasida jahon chempionatida ham o'zbekistonlik qizlar ichida ilk jahon chempioni bo'ldi. U turnirda 2609 reytingga ega kuchli grossmeystrlar darajasida o'ynagan.

Afruza jahon chempionligini qo'lga kiritgach, uning onasi bilan suhbatlashdik.

- To'rt nafar farzandimiz bor, Afruza oilada ikkinchisi, - deydi Shabnam Ismatova. - Qizim yoshligidan rasm chizish va kitob o'qishga qiziqardi. Otasi Akbar Hakimov shaxmatchi bo'lganligi uchun u ham shaxmatni tanladi. Boshlang'ich ta'limni uyda otasidan o'rgangan bo'lsa-da, dadasini birpasda yutib qo'yardi. Afruzaning shaxmatga qiziqishi va mahorati oshgach, shaxmat

murabbiyi Shahob Hamroqulovga birtiriktdi. Qizim u kishining qo'l ostida viloyat birinчилиgi, O'zbekiston chempioni va xalqaro turnirlar g'olibligini qo'lga kiritdi. Keyinchalik otasining o'zi Afruzaga ustozlikni davom ettirdi va musobaqalarda doim yonida.

Afruza bizga "Sizlarning mehnatlarigiz orqali meni butun dunyo taniydi. Ishonchingizni oqlayman va buning uchun tinmay harakat qilaman", der edi. Qizim bolalar va o'smirlar, maktab o'quvchilari o'rtasida o'z yosh toifasida 17 karra O'zbekiston, 15 karra Osiyo, 5 karra jahon chempioni hamda xalqaro turnirlar g'olibi bo'ldi. Ota-ona uchun farzandning yutug'ini ko'rishdek baxt bo'lmasa kerak. Qizim bilan faxrlanaman.

To'g'risi, bu musobaqada Afruzaning g'olib bo'lishiga ishonmagan edik. Chunki viza bilan bog'liq muammolar sababli jahon chempionatiga kechikib bordi va birinchi turni o'tkazib yubordi. Musobaqalarda ikkinchi turdan ishtirokini boshladi va 9 ta o'yinning barchasida g'alaba qozonib, chempionat tugashiga yana bir tur qolganida muddatdan oldin chempionlikni qo'lga kiritdi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

OBUNA - 2024

Mardon BOLTAYEV,
tilshunos olim, SamDU dotsenti:

- Xoh uyda, xoh ishda bo'lsin, albatta, bo'sh vaqt topdim deguncha "Zarafshon" gazetasi o'qiyman. Viloyatimiz hayotiga oid xabar va yangiliklar, munozarali maqolalar hech kimni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, undagi o'zgarishlar haqidagi maqolalar meni ushbu nashrga obuna bo'lishga undaydi.

Boshqa ziyolilarga ham gazetaga obuna bo'lishni maslahat beraman.



Issiqxonalaridagi gurkirab turgan ekinlar endi hosilga kirganda issiqlik manbaidan uzib qo'yilsa, nima bo'ladi? Qilgan barcha xarajatlaringiz osmonga uchadi. O'tgan yillarda viloyatimizdagi ko'p hududlarda shunday holat kuzatilgan edi. Bu yil-chi? Viloyatimizda vaziyat qanday?

Issiqxonalariga tabiiy gaz beriladimi?



"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filialidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, viloyatimizdagi 133 ta issiqxonalar shu paytgacha aholi yoqayotgan gaz tarmoqlariga ulangan edi. Issiqxonalarida ko'p gaz yoqilishi tufayli xonadonlarga boradigan tabiiy gaz kamayib, aholining noroziligiga sabab bo'lardi. Joriy yildan bu tartibga o'zgartirish kiritildi.

- Vazirlar Mahkamasining "Issiqxonalar xo'jaliklari va meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, ko'mirga o'tkazilishi kerak bo'lgan issiqxonalar kuz-qish mavsumida tabiiy gaz ma'lum bir talablar asosida yetkazib beriladi, - deydi "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali bosh muhandisi Vahob Halimov. - Buning uchun issiqxonalarining gaz hisoblagichlari tabiiy gaz nazorati va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulangan bo'lishi, tabiiy gazdan yuzaga kelgan debitor qarzdorligini so'ndirishi hamda tabiiy gaz uchun belgilangan to'lovni oldindan to'lashi lozim bo'ladi. Shuningdek, favqulodda holatlar yuzaga kelganda, issiqxonada yetarli miqdorda muqobil energiya zaxirasi mavjud bo'lishi shart.

Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi viloyat bo'limi, "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali va viloyat prokuraturasi bir oy muddatda issiqxonalar xo'jaliklarining gaz nazorati va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulanganini nazorat qiladi va ulanmagan issiqxonalar xo'jaliklari "Insosfiz iste'molchilar ro'yxati"ga kiritilgan holda ularga gaz yet-

kazib berish bo'yicha shartnomalar bekor qilinadi.

- Bugungi kunda issiqxonalarining tabiiy gazdan 9,5 milliard so'm miqdorida qarzi mavjud. - deydi V.Halimov. - Shuning uchun viloyat hokimligi hamda issiqxonalar xo'jaliklari o'rtasida kelishuvlar tuzish amaliyoti joriy etiladi. Kelishuvlarda har bir issiqxonalar xo'jaligining ehtiyojidan kelib chiqqan holda, unga yetkazib beriladigan tabiiy gaz hajmlari aniq ko'rsatiladi va xo'jaliklar 30 foiz oldindan to'lovni amalga oshiradi. Hozirgacha 50 ta issiqxonalar rahbari bilan tabiiy gaz ta'minoti bo'yicha shartnomalar tuzildi.

Tabiiy gazdan ko'mir yoqilg'isiga o'tkaziladigan issiqxonalar xo'jaliklarini davlat tomonidan rag'batlantirish maqsadida 2023-yil 1-noyabrdan issiqxonalar xo'jaliklarining ko'mir qozoni xarid qilish xarajatlarining 20 foizi Bog'dorchilik va issiqxonalar xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan issiqxonalar xo'jaliklariga ko'mir saqlash omborlarini qurish uchun 3 yil muddatga 1 yillik, yoqilg'i sotib olish uchun 1 yil muddatga 6 oylik imtiyoz davri bilan kreditlar beriladi. Bundan tashqari, kredit olib, issiqxonalar xo'jaligini tashkil qilgan har bir tadbirkorning moliyaviy ahvolini inobatga olgan holda, ularning kreditlarini qaytarish muddatlarini uzaytiriladi.

Issiqxonalarini tejankor energiya, quyosh panellari yordamida isitish kam xarajatliligi bilan bir qatorda, issiqlikni minimal holatda ushlab turish imkoniyatini ham yaratadi. Ulardan foydalanish ham bugun har qanchongidan muhim.

Dilmurod TO'XTAYEV.

UCH YILDA

5 million

TUP KO'CHAT EKILGAN(mi?)

Bir gektar maydondagi daraxt bir kecha-kunduzda 220-275 kilogramgacha karbonat anhidrid gazini yutib, 180-215 kilogramm kislorod ajratadi. Bu miqdor o'rtacha 500 kishini kun davomida kislorod bilan ta'minlashga yetadi. Eng ko'p kislorodni qayrag'och (gektariga 6-7 tonna) va archalar (gektariga 4,8-5,9 tonna) ishlab chiqaradi. Bir yilda o'rta yoshli (60 yillik) o'rmon o'rtacha 14,4 tonna karbonat anhidrid gazini yutib, 10,9 tonna kislorod ishlab chiqaradi. 1 gektar ekinzor bir soatda 200 nafar inson chiqargan karbonat anhidrid gazini yutadi. Bir kishining yillik kislorodga bo'lgan ehtiyojini 0,1-0,3 gektar o'rmon qoplay oladi. Bitta katta daraxt bir kishiga yetarli kislorod ajratib beradi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

UCH YILDA 50 million TUP KO'CHAT EKILGAN(mi?)



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

OROMGOHLAR HAM CHETDA QOLGANI YO'Q



Respublikamizda ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, hududlarni ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirishda "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilishi muhim qadam bo'ldi. Mazkur tadbirda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi hamda tarmoq kasaba uyushmalari tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda.



Jumladan, federatsiyaga qarashli Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti viloyat boshqarmasi tasarrufidagi oromgohlar ushbu jarayonga o'z hissasini qo'shmoqda. Loyiha doirasida viloyatdagi 10 ta oromgoh hududida 1085 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Har bir niholni parvarishlash, suv ta'minotini yo'lga qo'yish uchun mas'ullar birlashtirildi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish, qolaversa, ona tabiatni sevib asrashda ushbu ishlarimiz yoshlarga o'rnatilgan mas'uliyat bo'ldi.

Feruza QILICHEVA,
O'zbekiston davlat
muassasalari va
jamoat xizmati
xodimlari kasaba
uyushmasi
viloyat kengashi
raisi.

DARAXTLAR - KISLOROD MANBAI

Daraxtlar faqatgina kislorod manbai emas. Daraxt va butalar shovqinni yutib, havodagi changni ham ushlab qoladi. Bargi yirik, bargining yuzasi tukli bo'lgan daraxtlar boshqalariga nisbatan 6 martagacha ko'proq changni ushlab qola oladi. Shuningdek, yerdan 1,5 metr balandlikda qalin barglarga ega daraxtlar ancha balandda shoxlaydigan (8 metr) daraxtlarga nisbatan 8 barobar ko'proq changni ushlab qoladi. Shuningdek, daraxtlar fitonsidlar ishlab chiqarib, ular bakteriyalarga qarshi ta'sir qiladi.

Jumladan, hududlarda ko'p ekilayotgan archa bir jinsli, bir yoki ikki uyli, shamol yordamida changlanuvchi, ignabargli o'simlik hisoblanadi. Uning 2-3 yoshli ko'chati ekiladi, mart-may oylarida esa gullaydi. Ba'zi turlari tropik hududlardagi tog'larda ham uchraydi. Archaning xo'jalikdagi ahamiyati g'oyat katta. Yog'ochi me'morlik, o'yamakorlik va qalam yasashda ishlatiladi. Ba'zi turlaridan xushmanzara o'simlik sifatida ham foydalaniladi. Archasimon daraxtlar qishin-yozin yashillikka burkangan bo'ladi. Natijada yil bo'yi changni yutib, havoni tozalab turadi.

Ba'zi daraxtlar insonga kuch-quvvat baxsh etsa, ayrimlari qon bosimini maromiga keltirib, yurak va asab tizimi faoliyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Daraxtlar atrofningsanitariya-gigiyena holatini yaxshilaydi, kuchli shamollarni qaytarib, o'zidan zararli mikroblarni o'ldiruvchi fitonsidlar ishlab chiqaradi.

Ammo bir daraxt turining yo'qolishi 30 turdagi hayvon turlarining yo'qolib ketishiga sababchi bo'ladi. Daraxtlar yerni eroziyadan saqlaydi va tuproqni mustahkam ushlaydi. Ularning ildizlari suvni filtrlab, sifatini yaxshilaydi. Daraxtlar suv bug'i ajratib chiqarib, ob-havo harorati orasidagi farq katta bo'lib ketishining oldini oladi. Bu ayniqsa, Markaziy Osiyoning kontinental iqlimida juda foydali va zarur. Daraxtlar shaharlarning arxitekturasiga chiroy baxsh etib, tabiatning fauna va florasiga hissa qo'shadi. Bir tomondan, atrofni go'zal qilsa, boshqa tomondan, daraxtlar insonlarga mevalar va hayvonlarga ozuqalar beradi.

Shu bois ko'chat ekish, yashil hududlarni ko'paytirishning ahamiyati beqiyos. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish ishlari olib borilmoqda. Yuqorida sanab o'tganimizdek, daraxtlar jazirama issiqni 8-10 darajagacha pasaytirgan ekan. Qolaversa, daraxtlar yer osti suvlarining sathi pasayib ketishining oldini oladi. Har bir daraxt, ayniqsa, tog'dagi archalar yer ostida 3-4 tonna suv saqlaydi va ularning kesilishi buloqlarning qurishiga sabab bo'ladi. Lekin qanchalar ayanchli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligi haqida oldindan xulosalar berilgan bo'lsa-da, ko'chat ekishni hisobot uchun o'tkazayotgan mas'ullar va moratoriyga ham qaramasdan, daraxtlarni kesayotganlar uchrab turibdi.

50 MILLION TUP KO'CHAT QANI?

2021-yilda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublikamiz bo'yab 200 million tup ko'chat ekish va yashil hududlarni 8 foizdan 30 foizga yetkazish rajalashirilgandi. Viloyatimizda esa o'sha yilda loyiha doirasida 16 million tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan. 2022-yilda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida viloyatimizda 16 million 388 ming tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, har bir shahar va tumanda 84 gektar maydonida "Yashil bog'lar" tashkil etilgan. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jamshid Rabbimov jurnalistlar bilan uchrashuvda viloyatda ko'kalamzorlashtirish hududlarida 50 kilometr dan ziyod sug'orish tarmoqlari qazilishi va 30 ta yer osti suv chiqarish quduqlari qayta tiklanishini bildirdi. Shuningdek, shaharlar va tumanlar obodonlashtirish boshqarmalariga 6,95 milliard so'm mablag' yo'naltirilib, respublika va mahalliy budget mablag'lari hisobidan ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalaniladigan 8 ta maxsus texnika xarid qilinishini aytgandi. Reja ijrosiga ko'ra, hozir viloyatimizdagi 18 foizli ko'kalamzorlashtirish darajasi yaqin orada 30 foizga yetkaziladi. Joriy yil bahor va kuz faslida esa 17 million tup ko'chat ekish rejalashtirilgan va bu ishlarining katta qismi bajarildi.

Endi hisoblab ko'rsak. Uch yil davomida birgina viloyatimiz bo'yicha qariyb 50 million tup ko'chat ekilgan. Mas'ulning fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, sug'orish tizimida ham muammo bo'lmasligi kerak. Lekin asosan yo'lb'yi, dala chetlariga ekilayotgan 50 million tup ko'chat qani? Yana bir muhim jihat, viloyatda shu sohaga ixtisoslashgan bir nechta tashkilot, olimlar mehnat qilishadi. Bir nechta yil davomida ulardan birortasi qaysi tumanga qanday turdagi mevali yoki manzarali ko'chat mos kelishi to'g'risida ma'lumot berdimi? Yangilik sifatida xorijdan valyuta hisobiga keltirilayotgan ko'chatlarning aksariyati iqlimga

mos kelmaganligi uchun qurib qolyapti. Ularni mahalliy sharoitga moslashtirish borasida ham biror ma'lumot topilmaydi. Viloyat tumanlarining iqlim sharoiti bir-biridan farq qiladi. Bir hududda lalmi maydonda, boshqasida suvsizlikka va shamolga chidamli ko'chatlar ekish lozim. Bizda bo'lsa barchasiga birdek katalpa, lola daraxti, pavloniya, archa, Qrim qarag'ayi, Yapon saforosi kabi daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Ular qatoriga iqlim sharoitimizga mos ko'p yillar davomida yaxshi o'sadigan chinor, eman, kashtan, shumtol, zarang, tut kabi daraxt nihollari ko'proq ekish foydali emasmi?

KO'CHAT EKISH BOBOLARDAN MEROS

Aslida ko'chat ekish ota-bobolarmizdan qolgan an'ana. Qaysi uyda chaqaloq tug'lsa, yaxshi kun, to'y-tomoshga bo'lsa, ko'chat ekiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq sharafiga ekilgan teraklar kelajakda uy qurishga ishlatilsa, yong'oq va tut daraxtlari mevasi, soyasida bolalar o'ynashi va asosiysi, ko'p miqdorda kislorod chiqarishi uchun ekilgan. Bobolarimiz ko'chat ekishda yerni 40-60 santimetrgacha kovlab, chuqurga bir-ikki hovuchdan arpa va bug'doy tashlab, keyin ko'chat ekishgan. Chunki arpa va bug'doy tarkibida fosfor bo'lib, ko'chatning tomir otib, ko'karib ketishiga yordam beradi. Keyin ko'chatni nihollar uyquga ketish oldidan asosan kuz faslida yoki erta bahorda nihollar uyg'onmasdan ekishgan. Chunki kuzda ekilgan nihol qish mavsumida yerga tez moslashishi, ildizning qulay o'rnatilishi tufayli bahorga borib, bir yil avvalgi ko'chatlar qatoriga yetib olib, tez o'sadi. Shu bois kuzda ekilgan ko'chat suvsizlikdan qurib qolish, tomirlarning shikastlanishi kabi muammolar kam uchraydi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasining aynan 25-oktabrdan 1-dekabr gacha o'tkazilishi ham bejiz emas. Chunki shu muddatdan boshlab ayrim turdagi daraxtlar uyquga ketish fazasiga o'tadi, dekabrda yerning yuzasi muzlashi ehtimoli tufayli ko'chat ekish samarasiz bo'ladi. Ammo ayrim hududlarda tezkor hisobot uchun bargi yashnab turgan nihollar ham ko'chat ekish qoidalari riyoga qilinmasdan ekildi. Bu esa ko'chatning ko'karishi ahamiyatsiz, ekilishi muhimligini anglatmayaptimi?

DARAXTLAR RO'YXATINI TUZISH YILLAR DAVOMIDA TUGAMAYPTI

Yana bir muhim jihat, ekilgan ko'chatlarning parvarishi nazoratga olinmagani bo'lmoqda. Nafaqat yangi ekilgan ko'chatlar, balki ko'p yillik daraxtlar, 100 yoshdan oshgan noyob daraxtlar borasida ham shunday deyish mumkin. Soha mas'ullari barcha turdagi daraxtlar, ayniqsa, 100 yoshdan oshgan daraxtlarning alohida ro'yxati shakllantirilayotganligini aytganiga ham bir necha yil bo'lsa-da, hamon bu jarayon tugallangani yo'q. Masalan, Nyu-Yorkda har bir daraxt uchun personal kartochka tayyorlanar ekan va u orqali daraxt to'la nazorat qilinarkan. Daraxtlarning barchasi xaritada kiritilgan va ular Nyu-York budgetidan yiliga 11 million dollar tejaydi. Parklarni hisobga olmaganda shaharda 700 mingdan ortiq daraxtning o'z raqami va internetda sahifasi bor ekan.

Afsuski, bizda hamon daraxtlar, umuman, tabiatga munosabat yomonligicha qolmoqda. Mintaqada kuzatilayotgan ekologik o'zgarishlar ham aslida ekologiyaga e'tiborsizlikning mevasi hisoblanadi.

DARAXTLAR KAMAYSA, EKOLOGIK FALOKAT BO'LADIMI?

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning ma'lumotlariga ko'ra, bir yilda kesilgan o'rmonlarning 40 foizi yoqilg'i uchun, 40 foizi qurilish uchun, 12-15 foizi qog'oz sanoati uchun, 3-5 foizi shaxtalar uchun, qolgan 3-4 foizi boshqa turli sohalarda uchun ishlatilmoqda. Daraxtlarning kesilishi oqibatida tuproqning suv va shamol eroziyasi tezlashadi. Daryo va ko'llarning suv sathi keskin kamayib, buloqlarning "ko'zi" yumiladi. O'rmonlar kamaysa, tabiatda azot balansini buziladi, havoda kislorod kamayadi, ozon qatlami muammosi kattalashadi. Insoniyatda yangidan-yangi kasallik turlari paydo bo'ladi. Bu insoniyatning birgina ko'chat ekishga yuzaki yondashgani va o'rmonlar va daraxtzorlarni kesishi oqibatida kelib chiqadi. Shu boisdan ham dunyoning aksariyat davlatlarida daraxtlar qonun bilan himoyalangan va ularni asrash uchun maxsus tashkilot, jamg'armalar tashkil etilgan. Lekin bizda yiliga nechta ko'chat ekiladi, qanchasi parvarishsiz quriydi, kesilgan daraxtlar ko'proq nimaga ishlatilayotgani to'g'risida ma'lumotlar yo'q. Yuqorida aytilgan muammolarning aksariyati bilan yuzlashaymiz, bundan yomon holat kuchaymasligi uchun ko'chat ekishni ko'paytirishimiz lozim. Ko'chat ekishni rasmiyatchilikdan an'anaga aylantirib, kelajak avlod uchun ham hozirdan yashil qalqon yaratish bizning vazifamiz.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,
"Zarafshon" muxbiri.

TASHKILOTLARNING O'Z BOG'I BO'LADI

Qorasuv massivida Samarqand shahar hokimligi bog'i tashkil etildi. Shahar hokimi boshchiligidagi barcha xodimlar tadbirda ishtirok etib, hududga mos bo'lgan kashtan, katalpa va boshqa daraxt ko'chatlari ekildi.



Shahar hududida mevali va manzarali ko'chatlar ekiladigan maydonlarda dastlab zaruriy agrotexnik tadbirlar o'tkazilib, sug'orish tizimlari joriy etildi.

Kuzgi ko'chat ekish tadbirida shaharda 370 ming tup ko'chat ekish rejalashtirilgan va hozirgacha 200 ming tupga yaqini o'tqazildi.

Samarqand tumanidagi o'rta sektor hududida ham "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuzgi ko'chat ekish ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, 24-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan seminarida ikkinchi sektor hududidagi maktablar rahbarlari, mahalla faollari, nuroniylar ishtirok etdi.

Qo'shrabot tumani hokimligi va Xalq qabulxonasi mas'ullari Navkat mahallasida loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish asosida mahalla hududidagi bo'sh maydonlarga ko'chatlar ekdi.

Payariq tumanida viloyat bosh imom-xatibi Zayniddin Eshonqulov boshchiligidagi "Imom Buxoriy avlodlari" bog'ida ko'chat ekildi.

Haharda tumandagi barcha masjidlar imom-xatiblari, Hadis ilmi maktabi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi xodimlari ishtirok etdi.

Viloyat prokuraturasi tashabbusi bilan viloyat o'rmon xo'jaligining Oqdaryo tumanidagi G'ala-ba bo'limida 20 gektar maydonda 14 ming tup manzarali, 2 ming tup mevali hamda Jomboy tumanidagi Xashdala bo'limida 31,5 gektar maydonda 23 ming tup manzarali va 2 ming tup mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda.

Viloyat soliq boshqarmasi Samarqand shahar Rasadxona mahallasida 1350 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazdi.

Viloyat bojxona boshqarmasi jamoasi Bolung'ur tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massividagi 7 sotix maydonda "Bojxona bog'i" tashkil etmoqda.



Viloyat hokimi tomonidan joriy yil 25-yanvarda jamoatchilik nazorati tartibida o'tkaziladigan o'rganishlar rejasi tasdiqlangandi. Rejaga asosan iste'molchilar huquqi va manfaatlarini himoya qilishda jamoatchilik keng jalb etiladi. Ikkinci iste'mol bozorida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, odamlar hayoti va sog'lig'iga xavfli bo'lgan sifatsiz mahsulot va xizmatlarning sotilishiga yo'l qo'yilmaydi.

INSOFNI UNUTGANLAR QONUNDAN HAM QO'RQIMAYDIMI?



(jami 4 turdagi 22 dona) yaroqsiz mahsulotlar sotilayotgani kuzatildi.

Tadbirkorlar S.K. va M.Shga qarashli savdo do'konlari ko'zdan kechirilganda iste'molga yaroqsiz bo'lgan baraka un oshi, suxariklar, zig'ir yog'i, sariyog'i, o'simlik yog'i, yarim tayyor lag'mon, quyultirilgan sut mahsulotlari (jami 53 dona) borligi aniqlandi.

Bulung'ur tumanidagi o'rganishlarda xususiy korxonalar rahbari Sh.G.ga qarashli do'konida 2 nafar ishchi tibbiy ko'rikdan o'tmagan holda spirtli va yaxna ichimliklar chakana savdosini bilan shug'ullanib kelmoqda. Do'konida 6 turdagi mahsulotda yaroqlik muddati ko'rsatilgan, ammo ishlab chiqarilgan sanasi yozilmagan. Savdo rastasidagi 12 dona spirtli ichimlik va 2

turdagi 14 dona yaxna ichimlikning yaroqlik muddati o'tib ketgan.

Tumanning Mehrjon mahallasidagi X.D. rahbarlik qilayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatda ham ishchilar tibbiy ko'rikdan o'tmagan. Do'konida ko'p hajmda markirovka oziq-ovqat mahsulotlari mavjud. Shuningdek, savdo do'konidagi o'n turdan ortiq oziq-ovqat mahsulotlarida yaroqlik muddati ko'rsatilgan, biroq, mahsulotning ishlab chiqarilgan sanasi yo'q. Rastalardagi qo'ziqorin tuzlamasi, pista yog'i va quyultirilgan sut mahsulotlarining yaroqlik muddati o'tib ketgan.

Shu mahalladagi tadbirkor Q.Y.ga qarashli savdo do'konida ham xodimlar tibbiy ko'rikdan o'tmagan. Do'konidagi 30 xildan ortiq oziq-ovqat mahsulotida yaroqlik muddati ko'rsatilgan, lekin ishlab chiqarilgan sanasini topib bo'lmaydi. Savdodagi tomat, ko'kno'xat, yogurt va ko'p miqdorda kolbasa mahsulotlarining yaroqlik muddati o'tib ketgan.

Tumandagi yana bir tadbirkor Y.Sh.ga qarashli do'konida ham tibbiy ko'rikdan o'tmagan xodimlar ko'p hajmda markirovka oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanmoqda. Bu do'konida 40 turdan ortiq oziq-ovqat mahsulotida yaroqlik muddati ko'rsatilgan, ammo qachon ishlab chiqarilgan yozilmagan. Savdodagi un oshi lapshasi, konfetlar, quruq choy va kolbasa mahsulotlarining yaroqlik muddati o'tib ketgan.

Monitoring davomida Samarqand shahri va tumanlardagi 41 ta savdo obyektida jami 1736 dona iste'molga yaroqsiz oziq-ovqat mahsulotlari aniqlandi. Ushbu mahsulotlar savdo rastalaridan olinib, aholiga sotilishining oldi olindi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari hududiy birlashmasi axborot xizmati.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Aktiv nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolariga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	"Samarqand-Bulung'ur elita urug'chilik xo'jaligi" MCHJ	"Samarqand-Bulung'ur elita urug'chilik xo'jaligi" MCHJ	Samarqand viloyati Bulung'ur tumani, Beshkal qishlog'i	0	0	8 563 000,0	21.12.2023 y.	21.12.2023 y.

Auksionga qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" AJning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolarida qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazidan yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy

kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar mulk haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiradi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksionini tanlaydi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchi-

laridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonnomam avtomatik tarzda shakllantirilgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat

pullari ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolarida qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil:

Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi).

Ma'lumot uchun telefonlar:
+99866-233-96-64,
+99899-447-17-70.

Faks: +99866-233-73-54.

Facebookdagi rasmiy sahifa:
Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz
Internet tarmog'idagi veb-sayt: samarqand@davaktiv.uz



TANLOVDA QATNASHING!

O'zbekiston "Qizil Yarim oy jamiyati" va "Germaniya qizil xoch" tashkiloti hamkorlikda Bulung'ur tumani "Laimkor" MFY hududidan 160-200 metr chuqurlikdan aholi iste'moliga mo'ljallangan ichimlik suvi chiqarish uchun burg'ulash xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida tanlov o'tkazadi.

Tabagorlar o'z tijorat takliflarini 2023-yil 11-dekabr gacha O'zbekiston "Qizil Yarim oy jamiyati" Samarqand viloyat tashkilotiga taqdim etishlari lozim.

Tijorat taklifi bilan birgalikda quyidagi hujjatlar topshiriladi:

- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma va lisenziya (mavjud bo'lsa) nusxasi;
- korxonada direktorining shaxsiy tasdiqlovchi hujjati nusxasi.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 52-uy.

Murojaat uchun telefonlar: +99866-233-36-25, +99866-233-36-47, +99866-233-51-54.

MINNATDORCHILIK

O'tgan yili nabiralarning imorat qilish maqsadida qurilish jihozlari olib qo'ygan edim. Bir kuni ertalab qaragam, o'g'ir-lab ketishganini bilib qoldim. Darrov ichki ishlar bo'limiga bordim. Mening murojaatimni qayd etib, ashyolarni topib berishdi. Bu ishda jonbozlik ko'rsatgan Past Darg'om tumani IIB 2-son bo'linmasi xodimlari, xususan, bo'linma boshlig'i, podpolkovnik Abbas Ishpo'latovga minnatdorchiilik bildiraman.

O'zim o'ttiz yildan ortiq ichki ishlar sohasida ishlab, na-faqaga chiqqanman. Bu ishning mashaqqatini tushunganim uchun soha xodimlarining mehnatini e'tirof etyapman. E'tiborlis, ular hozir ham holimdan xabar olib turadi.

Said Yo'ldoshev, Past Darg'om tumani.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Usmanov Ismailga (2010-yil 11-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Muxbilov Normat Matlabovichga (2007-yil 5-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Urgut shahri Bog'fi Usmon mavzesi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Faxriyev Amriga (1999-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Pirmamedov Akilga (2001-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Mamarasulov Nuriddin Kurozovichga (2019-yil 25-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Tugalov Tursunbay Kodirovich (2020-yil 23-oktabrda

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xamdavova Fershitaga (2023-yil 24-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Gafurov Abduraxim Rashidovichga (2023-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Bektoshev Rayim Narzikulovichga (2021-yil 31-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Baxritdinov Nizomiddin Umarovichga (2021-yil 20-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Toshtemirov Toshpulatga (2021-yil 10-iyulda vafot

etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Toshkent ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Raximov Rustam Useinovichga (2001-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi. Mo'ljal: "Baxt uyi".

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Safayev Mirkamol Mirbakayevichga (2017-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Eshmatova Xayrinisoga (2022-yil 26-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Viloyat madaniy meros boshqarmasi jamoasi boshqarma boshlig'i Botir Shaymatovga bobosi **Abdusalom ota SHAYMATOV**ning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali jamoasi buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti moliya, soliq va bank ishi kafedrasida katta o'qituvchisi **Faxriddin DAMINOV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

Sharifa Davronova:

MAQSADIM YO'LIDA HARAKATDAN TO'XTAMAYMAN



O'zbekiston, jahon va Osiyo chempioni, Islom birdamligi o'yinlari g'olibi, Osiyo-da "Yilning eng yaxshi yosh yengil atletikachisi", Osiyo o'yinlari chempioni. Bu muvaffaqiyatlarning barchasi yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, 17 yoshli samarqandlik Sharifa Davronovaga tegishli. Sharifa yaqinda Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarining uch hatlab sakrash dasturida 14,09 metr natija qayd etib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Musobaqadan qaytgach, sportchi va uning ustozlari bilan suhbatlashdik.

– Sharifa, Xitoydagi musobaqa qanday o'tdi, natijangizdan qoniqdingizmi?

– Osiyo o'yinlarida 15 metrlik marrani zabt etaman deb o'ylagandim. Garchi ko'zlagan natijamni qayd etolmagan bo'lsam-da, asosiysi, chempionlikni qo'lga kiritdim. Osiyo o'yinlarining oltin medalini men uchun juda muhim edi. Afsuski, yoz faslining boshida jarohat olganimdan keyin mashg'ulotlardagi rejalar butunlay o'zgarib ketdi. Shu bois 15 metrlik marrani zabt etish biroz keyinroqqa qolmoqda. Hozir bu marraga erishish yo'lida murabbiy bilan ishlayapmiz va maqsadim yo'lida harakatdan to'xtamayman.

– Jarohatingiz jahon chempionatida muvaffaqiyatli qatnashishga to'sqinlik qilgandi. Osiyo o'yinlarida u o'z ta'sirini ko'rsatmadimi?

– Yo'q, ta'siri bo'lmadi. To'g'ri, jarohat jahon chempionatida ancha pand bergan edi. Osiyo o'yinlariga yuqori sport formasida yetib keldim. Shu bois unda kerakli natijani ko'rsata oldim deb o'ylayman.

– Osiyo o'yinlari davomida uzunlikka sakrash dasturida ham qatnashdingiz. Bu keyingi dasturga chiqishingizda salbiy ta'sir qilmadimi?

– Aksincha, foydali bo'ldi. Uzunlikka sakrash dasturi men uchun asosiy bo'lgan uch hatlab sakrash yo'nalishiga munosib tayyorgarlik bo'lib xizmat qildi. Uzunlikka sakrash asosiy dasturim bo'lmagani uchun unda maksimal darajada harakat qilmadim. Bu esa uch hatlab sakrashdagi chiqishimda katta yordam berdi.

– Faoliyatingizdagi eng katta yutug'ingiz qaysi?

– Kolumbiyada o'tkazilgan musobaqada jahon chempionligini qo'lga kiritganim va Turkiyada o'tkazilgan Islom birdamligi hamda yaqinda Xitoyda o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida oltin medalga sazovor bo'lganim faoliyatimdagi eng katta yutug'im. To'g'risi, 15 yoshimda jahon chempioni bo'laman deb o'ylamagandim. Musobaqa qiyin kechgandi o'shanda. Raqiblarim orasida Yevropa, olimpiada va Osiyo chempionlari bor edi. Lekin harakatlarim besamir ketmadi, jahon chempioni bo'lib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tardim va bundan faxrlanaman.

– Muvaffaqiyatlaringizning siri nimada?

– Hozirga qadar qanday yutuqlarga erishgan bo'lsam, ota-onam duosi va trenerlarimning qo'llab-quvvatlashlari, menga bildirilgan ishonch, yaratilgan sharoitlar samarasi deb bilaman. Ayniqsa, shu darajaga yetishimda Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi trener-o'qituvchilarining alohida hissasi bor va ulardan minnatdorman. Sportchi uchun jahon arenalarida va xalqaro maydonda yurt sha'nini yuksakka ko'tarish, ota-ona va ustozlari bildirgan ishonchni oqlash eng asosiy vazifa. Men bu yutuqlar bilan cheklanmoqchi emasman, yana ko'plab musobaqalarda yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, g'alabali yurishlarimni davom ettirish niyatidaman.

– Joriy yil yakunigacha qanday rejalar bor?

– Qisqa dam olishdan so'ng yana mashg'ulotlarni boshlaymiz. Yil yakunigacha musobaqalar yo'q. Kelasi yil boshida yopiq inshootlardagi Osiyo va jahon chempionati bor. Endi murabbiy bilan shunga tayyorgarlik ko'ramiz. Nasib qilsa, olimpiada normativini bajarishga harakat qilaman.

Sharifaning yengil atletikada erishgan yutuqlarida unga yoshligidan saboq berib, turli musobaqalarga olib chiqqan murabbiyi Muzaffar Karimovning xizmatlari katta.

– Sharifaga 10 yoshligidan boshlab murabbiylik qilaman. Ota-onasi oldimga olib kelganda yosh qizaloq edi. U hech qachon mag'lub bo'lishni istamaydi, yosh bo'lsa-da, yuqori marralarga intiladi. 2017-yilda ilk bor respublika musobaqasida qatnashib, ikkinchi o'rinni qo'lga kiritganda yig'lagandi. Sababi, birinchi o'rin nasib etmadi. Shundan keyin u "Endi hech qachon yengilmayman", deb so'z berdi va bu va'dasini bajaryapti.

Sharifa endigina 17 yoshga kirdi. Oldiga katta marralarni zabt etishni maqsad qilib qo'ygan va rekord natijalarga erishyapti. Oldinda Osiyo, jahon chempionati va Parijda o'tadigan yozgi olimpiada o'yinlari turibdi. Endi Sharifa bilan ushbu musobaqalarga tayyorgarlikni kuchaytiramiz va O'zbekistonga faqat oltin medallarni olib kelishga harakat qilamiz.

Fazliddin RO'ZIBOYEV suhbatlashdi.

Ona faqatgina farzandlarini emas, balki butun insoniyatni balo-qazolardan asrab qoluvchi cheksiz qudrat egasi. Ona haqida yozilgan minglab kitoblarni bir joyga to'plasak, ulkan tog' bo'lishi shubhasiz. Biroq hali-hanuz ularning birortasida onaning mukammal ta'rifi aytilgan emas, menimcha.

Men ham Qo'shrabotning olis qishlog'ida mashaqqatlaridan halovat topib yashayotgan onajonim bergan ibrat va mehrning bir chimdimiga quvvai hozifam darajasida izoh bermoqchiman.

Poyingizda dunyoni ko'rdim

...1993-yilning may oyida ziyolilar oilasining to'ng'ich farzandi bo'lib dunyoga keldim. Oilamizda mendan keyin 3 nafar singlim va ukam tug'ildi. Oylar ortidan oylar, yillar ortidan yillar o'tib, birdan ikkiga, ikkidan uchga to'lib, bir pasda maktabga ham chiqqa boshladik. O'zimiz bilan birga tashvishlarimiz ham ulg'aya boshladi.

Onajon, siz esa bolalarim qiynalmasin, birovdan kam bo'lmasin deb maktabda 30 yil dars berish barobarida hayotning har qanday sinovlarini yengib, turmushning eng og'ir mehnatlarini ham matonat bilan bajardingiz.

Bahor fasli kelishi bilanoq xalta-xalta ismaloqni orqalab, tong azonda bozorga ketardingiz. Saratonning ayni chillasida quyoshdan oldin uyg'onib qorong'u tushgan dala no'xat yuldingiz. Tap-pi-tezak qilib sotdingiz. Qishda ham tinim bilmay, ip yigirib, yozda gilam tikdingiz. Shu kunga qadar sizning bir laha tinim bilganingizni bilmayman. Bunday ibratingiz orqali bizlarni ham o'tib borayotgan umrimizning har soniyasidan unumli foydalanishga, ezgu amallar qilib, yaxshi inson bo'lishga chorlaydiz.

Yoshligimdan bayramlarga ssenariy tuzib, boshlovchilik qilishni yaxshi ko'radim. Mendagi bu iqtidor ham siz tufayli yuzaga chiqdi. 4-sinfdaligimda maktabimizda bo'ladigan Yangi yil tadbirini olib bordim. Siz menga ssenariy tuzishni, davrada o'zinni qanday tutishni o'rgatdingiz. Bayramning qanchalik qiziqarli, mazmunli o'tishi senga bog'liq, qizim, dedingiz. O'sha paytda yod oldirgan she'ringizni har Yangi yiloldi dilimda takror-takror aytib olaman.

*Yangi yil turibdi zafarga undab,
Shijoatga, mehnatga, g'ayratga chorlab.
Nurli istiqbolga ishonchimiz zo'r,
Kelajak ko'rinar quyoshdek porlab.*

Ehtimol, siz aytgan retaklar, yodlatgan she'rlar sabab qalbidagi adabiyotga bo'lgan mehr olovi yanada alanga olgandir. Qo'limga qalam olib, qofiyalar tuza boshladim. 5-6-sinfda o'qib yurgan kezlrim she'rlarim tuman, viloyat gazetalarida chop etildi. 8-sinfimda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining tuman bosqichida g'olib bo'ldim. 9-sinfdaligimda ona tili va adabiyot fani bo'yicha fan olimpiadasining viloyat bosqichida faxrli o'rinlardan birini egalladim.

Maktabni tamomlab, pedagogika kollejiga o'qishga kirdim. 2012-yilda "Vatan hidi", 2016-yilda "Hayot ranglari" she'riy kitoblarni nashr etildi. Kollejini tugatib, oliy ta'limning filologiya fakultetiga hujjat

Hayot aslida sodda. Faqat biz uni murakkablashtirishga urinamiz. KONFUTSIY.



O'quvchilar kutubxonaga qaytmoqda

Xalqimiz azaldan kitobxonlikni yoqtirgan. Bobolarimiz chiroq yorug'ida dostonlar tinglab ulg'aygan, baxshilar aytgan dostonlar to'y-ma'rakalarga o'zgacha shukuh bag'ishlagan. Keksalarining aytishicha, qatag'on yillarida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlarini yashirincha o'qishgan ekan. Shu tariqa azaliy qadriyatlarimiz, millatimizga xos bo'lgan insoniylik fazilatlarini avlodlardan avlodga o'tib kelgan. Hozirgacha kitobi bor xonadon fayzli hisoblanadi.

Bugun telefon hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurigan davrda o'quvchilarni kutubxonaga qaytarish, kitobni sevishga o'rgatish muhim masala sifatida aylanib ulgurdi. Bunda asosiy mas'uliyat umumta'lim maktab o'qituvchilari va ko'proq maktab kutubxonachilari zimmasiga tushadi.

Maktabimizda 700 ga yaqin o'quvchi tahsil oladi va ularning asosiy qismi kutubxonamiz a'zosi. Chunki maktabimizda o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatiga alohida e'tibor beriladi. Eng ko'p kitob o'qigan o'quvchi rag'batlantiriladi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari G.Toshnazarova, Sh.To'rayeva boshchiligidagi kutubxonada ijodiy kechalar, tarixiy sanalarga oid madaniy tadbirlar, ijodkorlar bilan suhbatlar, mahallamizdagi she'riyatga qiziqadigan nuroniy va nafaqadagi ustozlar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazilishi nafaqat o'quvchilarimizning, balki mahalla ahlining ham kitobga qiziqishini kuchaytirmoqda.

Gavhar ESHMURODOVA, Qo'shrabot tumanidagi 64-umumta'lim maktabi kutubxonachisi.

MUALLIMAMIZ

Zilola Yormamatova uyqudan tetik va xush kayfiyatda uyg'ondi, chunki bugun birinchi sinflarni qabul qilib olmoqda. Necha marta birinchi sinflarni qabul qildi va kuzatdi, har safar xuddi ilk bor qabul qilayotgandek hayajonlanishini o'zi ham tushunmaydi. Lekin bu hayajon ortida katta mas'uliyat borligini har kim his qilavermaydi. Zilola muallima tashqariga chiqib, xayol surib qoldi. Bu xayollar uni olis o'tmishga olib ketdi.



Shunga qaramasdan, bolalar mehnatidan foydalanish davom etardi. Hamma uch oygacha paxta terimida bo'lardi.

Bu ham kamlik qilgandek, o'qituvchilarni magistrat yo'llar atrofini o'tidan tozalash va gul ekishga jalb qilishdi. Har yili Samarqand-Nukus magistrat yo'lidan har bir o'qituvchiga 50-100 metr-

dan bo'lib berilardi. Shu berilgan joyni yil bo'yi toza saqlash va gul ekib, sug'orib turish vazifasi o'qituvchi zimmasida edi.

Bugun Zilola opa o'tgan yillar haqida o'ylarkan, hamkasblari bilan qanday murakkab davrlarda maktabga sadoqat bilan ishlaganini his qildi. Endi esa o'qituvchi jamiyatda o'z munosib o'rnini topmoqda, maktabga ishtiyok bilan kelmoqda.

Zilola opa 5 nafar farzandni o'qitib, uch qizini turmushga uzatdi. Hozirda to'qqiz nevaraning buvisi. Shogirdlari xalq xo'jaligining turli sohalarida xalqimizga xizmat qilmoqda. O'zi bilan birgalikda 31-maktabda ishlayotganlari ham bor.

Ustozim Zilola Yormamatova! Biz birinchi o'quvchilaringizmiz. Va sizdan minnatdormiz.

Hilola XUDOYQULOVA.

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 340 nusxada chop etildi. Buyurtma 640. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda